

O'ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRILISHI JARAYONLAR

Ko'paysinova Xurshida Jahongir qizi

Bank va moliya Akademiyasi "Moliya" yo'nalishi magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston bank tizimida raqamlashtirish jarayonlarini samarali tadbiq etish yo'llari va usullari o'rganilgan. Banklar faoliyatida raqamlashtirish texnologiyalarini joriy qilish moliyaviy xizmatlarni optimallashtirish, xizmat ko'rsatish tezligini oshirish va xarajatlarni kamaytirish imkonini beradi. Ushbu tadqiqot, O'zbekistondagi bank sektorida raqamli texnologiyalarni muvaffaqiyatli tatbiq qilishning afzalliklari va qiyinchiliklarini tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, maqolada raqamlashtirishning bank mijozlari va bank xodimlariga ta'siri, xavfsizlik masalalari va kelgusidagi raqamlashtirish loyihalari bo'yicha tavsiyalar ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Raqamlashtirish, Transformatsiya, bank tizimi, moliyaviy texnologiyalar, innovatsiyalar, xavfsizlik, mijozlar.

So'nggi yillarda bank tizimini transformatsiya qilish, ularning faoliyatini bozor tamoyillari va xalqaro standartlarga muvofiq qayta tashkil qilishning huquqiy asoslari takomillashtirilmoqda. Transformatsiya jarayonlari xorijiy tajribani inobatga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu Strategiya kelgusi besh yillikda bank-moliya tizimini isloh qilish va rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga oladi. Strategiyaga muvofiq banklarni kompleks transformatsiya qilish doirasida banklar tomonidan xalqaro moliya institutlari va xorijiy konsalting kompaniyalari bilan birgalikda asosan 5 ta yo'nalishda;

- korporativ boshqaruvni takomillashtirish;
- banklarda zamonaviy axborot texnologiyalarini tatbiq qilish;
- bankning tashkiliy tuzilmasini maqbullashtirish;
- bankning risk-menejment tizimini takomillashtirish-bankning biznes modellarini optimallashtirish orqali ular faoliyatini bozor tamoyillari asosida tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirildi va bu ishlar davom ettirilmoqda. Amalga oshirilyotgan islohotlar va amaliy chora-tadbirlar natijasida hozirgi kunga kelib jami bank sektori aktivlaridagi davlat ulushi 2020 yildagi 86 foizdan 78 foizgacha kamaydi. Ipoteka-bankdagi davlat ulushi to'liqligicha xususiylashtirilganidan so'ng mazkur ko'rsatkich 70 foizgacha pasayishi kutilmoqda. Shuningdek, FATF tavsiyasi va xalqaro tajribadan kelib chiqqan holda bankdagi ulushlarga egalik qilish bo'yicha

bank aksiyadorlariga qo'yiladigan talablar yumshatildi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida ham iqtisodiy sohada faol islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, ilg'or bank tizimini joriy etish, sohada raqobat muhitini mustahkamlashga qaratilgan keng qamrovli ishlar olib borildi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 41-moddasida bank operatsiyalarining, omonatlarning va hisobvaraqlarning sir tutilishi, shuningdek meros huquqi qonun bilan kafolatlanishi belgilab qo'yilgani aholi va tadbirkorlarning iqtisodiy xuquqlarining mustahkamlanganidan dalolat beradi. Ayni chog,,da bank tizimidagi ochiqlik va shaffoflik aholi va mijozlar uchun katta qulayliklar yaratdi. Oxirgi yetti yilda bank-moliya sohasida amalga oshirilayotgan chuqur islohotlar natijasida hozir ulardan foydalanuvchilar soni ortib bormoqda. Aholining bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari bilan ta'minlanganlik darajasini ko'rsatuvchi har yuz mingta katta yoshli aholiga to'g'ri keluvchi bank xizmatlari ko,,rsatish nuqtalari soni ko,,rsatkichi o'rtacha 54 taga yetib, yil boshiga nisbatan 5 bandga ko'paydi. Bugungi kunda mijozlar nafaqat to'lovlarni onlayn rejimida bankka bormasdan turib amalga oshirish, balki bank hisobvaraqlarini ham masofadan identifikatsiya qilish orqali ochish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa, mijozlarga bank va to'lov xizmatlaridan masofaviy tarzda foydalanish imkoniyatini sezilarli darajada oshirmoqda.

Banklar moliyaviy tizimning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy bank tizimida raqamlashtirish jarayonlari mijozlar uchun qulayliklar yaratish, bank operatsiyalarini tezlashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonning iqtisodiy islohotlari jarayonida bank sektorini rivojlantirish va raqamlashtirish masalalari davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda, raqamli texnologiyalarning tez rivojlanishi va ular orqali moliyaviy xizmatlarning kengayishi global miqyosda bank tizimlarini sezilarli darajada o'zgartirdi. O'zbekistonda ham bu jarayon faollik bilan amalga oshirilmoqda. Banklar uchun raqamlashtirish jarayonlari yangi texnologiyalarni joriy qilish va bank mahsulotlarini ko'paytirishni talab qiladi. Shu bilan birga, raqamlashtirish xavfsizlik va xatarlar masalasini ham oldinga chiqaradi. Ushbu ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadi O'zbekistondagi bank tizimida raqamlashtirish jarayonlarini samarali tatbiq etishning afzalliklari va muammolarini tahlil qilishdir. Banklar uchun raqamlashtirishning iqtisodiy foydalari, texnologik imkoniyatlar va amaliy qiyinchiliklarni ko'rib chiqish orqali yanada barqaror rivojlanishga erishish mumkin. O'zbekistonda raqamlashtirish jarayonlari va bank sektori: Raqamlashtirish, eng avvalo, bank xizmatlarining oson va tez amalga oshirilishini ta'minlaydi. Jumladan, onlayn banking, mobil ilovalar, elektron to'lov tizimlari va boshqalar bu jarayonning muhim qismidir. 2020-2023 yillar davomida O'zbekiston bank sektori raqamlashtirish sohasida muhim yutuqlarga erishdi. Masalan, tadqiqotlar natijasida ma'lum bo'lishicha, ko'plab tijorat banklari o'z

xizmatlarini elektron platformalarga o'tkazish va xizmat ko'rsatish tezligini oshirish borasida sezilarli o'zgarishlarga erishgan. Raqamlashtirishning iqtisodiy samaradorligi: Banklar uchun raqamlashtirishning muhim iqtisodiy afzalliklari mavjud. Avvalo, raqamlashtirish jarayonlari operatsion xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi.

Bank tizimidagi xavfsizlik masalalari: Raqamlashtirish jarayonlarining kengayishi bilan bir qatorda, xavfsizlik masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bank tizimida ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, kibersharoitda hujumlardan himoya qilish katta e'tiborni talab qiladi. Tadqiqotlarda qayd etilishicha, O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy qilish jarayonida axborot xavfsizligi darajasi yuksalmoqda, ammo bu borada xalqaro tajribaga suyanish muhimdir.

2020-2023 yillar davomida O'zbekistonda banklarning raqamli xizmatlarni joriy etishi va ulardan foydalanishning sezilarli o'sishini ko'rsatmoqda. Mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish: 2020 yilda mobil ilovalar orqali xizmat ko'rsatish ko'rsatkichi 25% ni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 70% gacha oshgan. Bu o'sish raqamlashtirish jarayonlarining kengayishini va bank mijozlarining mobil texnologiyalarga bo'lgan qiziqishini ko'rsatadi. Mobil ilovalarning o'sish sur'ati mijozlar uchun qulay va tezkor xizmatlarni taqdim etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Onlayn banking foydalanuvchilari: Onlayn bankingdan foydalanish ham 2020 yildan 2023 yilgacha sezilarli darajada oshgan. 2020 yilda foydalanuvchilar ulushi 30% bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda bu raqam 75% ga yetgan. Bu O'zbekiston bank sektorida raqamli moliyaviy xizmatlarning kengayishiga bog'liq. Bank xizmatlaridan foydalanuvchilar sonining ortishi, raqamli texnologiyalar tufayli mijozlar banklarga ko'proq ishonch bildirayotganidan darak beradi. Elektron to'lov operatsiyalari: Jadvalda elektron to'lov operatsiyalarining hajmi ham yillar davomida sezilarli darajada o'sgani ko'rinib turibdi. 2020 yilda bu operatsiyalarning hajmi 1,200 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu raqam 6,300 million so'mga yetgan. Elektron to'lovlar nafaqat O'zbekiston ichida, balki xalqaro darajada ham bank xizmatlarining tezkor va xavfsiz bajarilishini ta'minlaydi. Elektron to'lovlar hajmidagi o'sish raqamli moliyaviy infratuzilmaning rivojlanishi bilan bog'liq. Banklar mijozlarga yanada ko'proq xizmat turlarini taqdim etish, masofaviy xizmatlarni kengaytirish hamda blockchain texnologiyalarini kiritish ustida izlanishlar olib bormoqda. Shu bilan birga, sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalarining keng tatbiqi bank xizmatlarining avtomatlashtirilishini ta'minlash imkonini beradi.

O'zbekistonda banklar faoliyatida raqamlashtirish jarayonlari davomida raqamli xizmatlardan foydalanish darajasining jadal o'sayotganini ko'rsatadi. Bank xizmatlarining raqamlashtirilishi xizmat ko'rsatish tezligini oshiradi, xarajatlarni kamaytiradi va mijozlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bilan birga, xavfsizlik

va xizmat sifatini doimiy ravishda yaxshilash raqamlashtirish jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlash uchun muhimdir. O'zbekistonda bank tizimida raqamlashtirish loyihalarini samarali tadbiq etish uchun keng ko'lamli va puxta rejalashtirilgan strategiyalar kerak. Bu jarayonda xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratish, texnologik innovatsiyalarni joriy etish va xalqaro tajribalardan foydalangan holda milliy bank tizimini zamonaviy darajaga ko'tarish mumkin. Bank sektorining raqamlashtirilishi, moliyaviy xizmatlar sifatini yaxshilash va iqtisodiy o'sishga ko'maklashadi. Shu bilan birga, mijozlar uchun qulay va xavfsiz moliyaviy muhit yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev. PQ-4611-son "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 24.02.2020.
2. O'zbekiston Respublikasi prezidentining "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Toshkent sh., 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832 sonli. <https://lex.uz/docs/3806053>.
3. Shokiraliyevich, G. I. (2021). Role of information and communication technologies in accounting and digital economy. SOUTH ASIAN JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT RESEARCH, 11(5), 17-20.
4. Kunduzova, K. I. (2020). Ways to attract investment and improve its accounting. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(6), 216-221.
5. Odilov Yo.J. [Methods of preparing students for professional activity on the basis of teaching physics](#) // O'zbekiston Milliy Universiteti Xabarleri 1 (11)
6. Odilov Yo.J. [Informatsionno-kommunikatsionniye texnologii \(ikt\) v obrazovanii. Ikt kompetentnost v professionalnom razvitii kadrov](#). Scienceweb academic papers collection, 2181-1784